

**Davriy nashrni yetkazib berish uchun
SHARTNOMA № 0266**

2022-y. "17" 01

Toshkent shahar.

"KALEON INFORM" MCHJ, keyingi o'rnlarda «Xizmat ko'rsatuvchi» deb ataluvchi nomidan, Nizom asosida faoliyat yurituvchi raxbari Yusupova D.A. bir tomongan, va Toshkent davlat yuridik universiteti, kelgusida «Buyurtmachi» deb ataluvchi nomidan 2020-yil 25-sentyabrdagi 08-176-son buyrug'i asosida prorektor A.Iminov, birlgilikda «Taraflar», alohida esa «Tarat» deb ataluvchilar, mazkur Shartnomani qo'yidagilar haqida tuzadilar:

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Xizmat ko'rsatuvchi yetkazib berish bo'yicha xizmat majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi va Buyurtmachi egaligiga mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 1-Ilovasida keltirilgan davriy bosma nashrlarning namunalarini (kelgusida - Tovar) Shartnoma va 1-Ilovada kelishilgan miqdorda, assortimentda va muddatda yetkazib beradi, Buyurtmachi esa Tovarni mazkur Shartnoma shartlariga asosan qabul qilish va Tovar haqini to'lab berish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Tovarning" aniq nomi, miqdori 1-Ilovada belgilanadi. Tovar qiymati mazkur Shartnomaning amal qilish muddatiga to'g'ri keladi.

1.3. Mazkur Shartnomaga asosan tovarni yetkazib berish bo'yicha xizmat ko'rsatish davri Mazkur Shartnomanining 1-Ilovasida keltiriladi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Xizmat ko'rsatuvchining majburiyatları:

2.1.1. Tegishli sifatga ega "Tovar"ni Xizmat ko'rsatuvchi hisobidan Buyurtmachiga Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy manzil bo'yicha yetkazib berish.

2.1.2. Mazkur Shartnomaning 1-Ilovasiga asosan Buyurtmachiga belgilangan miqdorda va assortimentda "Tovar" yetkazib beradi.

2.1.3. Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga yetkazib berish bo'yicha bajarilgan xizmatlar dalolatnomasi va har oyning oxirida yetkazib berilgan Nashrlar bo'yicha hisob-fakturalarni taqdim etish majburiyatini oladi.

2.1.4. Nashriyot yeki davriy bosma nashrni chiqaruvchi boshqa shaxs tomonidan belgilangan "Tovar" ning davriyligiga asosan xizmat ko'rsatadi.

2.1.5. Hisob oyi davomida amaldagi qonunchilik talablariga binoan, Buyurtmachi tomonidan Xizmat ko'rsatuvchiga qaratilgan yetkazilmagan sifatsiz "Tovar"larni yetkazish bo'yicha talablarini bajaradi.

2.1.6. Buyurtmachi tomonidan yaroqsiz, shuningdek polikrafik yaroqsiz va mahsulot shaklini yo'qotgan "Tovar"ni almashtirish to'g'risida talab tushsa, Xizmat ko'rsatuvchi mazkur talab kelib tushgandan boshlab 10 kun ichida almashtirish majburiyatini amalga oshiradi.

2.2 Xizmat ko'rsatuvchining huquqlari:

2.2.1. Mazkur shartnomaning predmetiga tegishli savollar bo'yicha Buyurtmachidan hujjatlar, ma'lumotlar olish, shuningdek Xizmat ko'rsatuvchi o'z majburiyatlarini mazkur Shartnomaga asosan sifatli bajarish uchun kerakli og'zaki va yozma tushuntirishlar va tushunchalar olish .

2.2.2. Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachi bilan yozma ravishda 30 (o'ttiz) kun oldin kelishilgan holda 1- ilovada keltirilgan nashrlarni almashtirish huquqiga ega.

2.3. Buyurtmachi majburiyatları:

2.3.1. "Tovar"ni nomlanishi va miqdori bo'yicha ko'rib chiqish va tovar sifati lozim darajada bo'lgan taqdirda qabul qilish;

2.3.2. Tovar sifati lozim darajada bo'lgan taqdirda yetkazib berish bo'yicha xizmatlar dalolatnomasini imzolash;

2.3.3. Tovar sifati lozim darajada bo'lgan taqdirda Tovarni qabul qilmagan kundan boshlab 5 ish kun ichida Tovarni qabul qilishmaslikni sabablarni ko'rsatgan holda habardor qilish.

2.3.4. Mazkur Shartnomaning shartlariga asosan to'lovlarni belgilangan muddatda va narhda amalga oshirish.

2.4. Buyurtmachi huquqlari:

2.4.1. Yetkazib beruvchidan Shartnomada belgilangan muddatlarda Tovarni yetkazib berilishini talab qilish;

2.4.2. Yetkazib berilmagan yoki sifati lozim darajada bo'lgan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda 10 kun ichida Yetkazib beruvchidan sifatli tovar bilan almashtirib berishini talab qilish;

3. SHARTNOMA NARXI. HISOB-KITOB TARTIBI.

3.1. Mazkur Shartnomaning umumiy summasi: Qo'shilgan qiymat solig'i bilan **6 915 248 (Olti million to'qqiz yuz un besh ming ikki yuz qirq sakkiz)** so'mni tashkil etadi.

3.2. Buyurtmachi Xizmat ko'rsatuvchi bilan hisob-kitobni qo'yidagi tartibda amalga oshiradi:

Mazkur Shartnoma tomonlar imzolagandan so'ng va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qoshidagi G'aznachilikdan ro'yhatdan o'tgan so'ng Buyurtmachi 100 % miqdordagi oldindan to'lojni Xizmat ko'rsatuvchi hisob raqamiga 5 (besh) bank kuni ichida o'tkazadi.

3.3. Buyurtmachi va Xizmat ko'rsatuvchi o'rtasidagi barcha o'zaro hisob-kitoblar to'lov topshiriqnomasi orqali Xizmat ko'rsatuvchi Shartnomaning 11-bo'limida ko'rsatib o'tilgan hisob raqamiga mablag' o'tkazish orqali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi-so'mda amalga oshiriladi. To'lov sanasi Xizmat ko'rsatuvchining hisob raqamiga mablag' o'tkazilgan sana hisoblanadi.

3.4. Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan Buyurtmachiga hisob-fakturalar mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va muddatda taqdim etiladi.

4. TOVARNI YETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1. "Tovar"ni yetkazib berish Xizmat ko'rsatuvchi tomonidan mazkur Shartnomaning 2.1.1.-bandida ko'rsatilgan manzilgacha amalga oshiriladi.

4.2. Agarda hisobot davrida yetkazib berilgan "Tovar"ning miqdori yoki sifatiga e'tirozlar bo'lsa, shuningdek ular bartaraf etilmasa, Buyurtmachi yetkazib berish xizmatlari bo'yicha dalolatnomani imzolashdan bosh tortish va Xizmat ko'rsatuvchiga e'tiroz bildirish huquqiga ega. Agarda belgilangan muddat ichida Buyurtmachi tomonidan hech qanday e'tirozlar kelib tushmasa, hisobot davri uchun "Tovar" buyurtmachi tomonidan e'tirossiz qabul qilingan deb hisoblanadi.

4.3. Buyurtmachi hisobot davrida "Tovar"ni yetkazilmaganligi haqida yezma ravishda talabnoma taqdim etamagan hollarda, yetkazib berish xizmatlari dalolatnomasiga imzo qo'yishdan bosh tortishga haqli emas.

4.4. Buyurtmachi poligrafik yaroqsizlikka ega "Tovar"ning namunalari taqdim etilganda, o'z tanloviga ko'ra qo'yidagilarni talab etishga haqli:

- a) o'xhash nashrning namunasi (namunalari)ga almashtirish;
- b) Yetkazilib berilmagan "Tovar" narxini qaytarishni talab etish.

5. MAHFIYLIK

5.1. Taraflar mazkur Shartnomani ijro qilgan davrda, boshqa Tarafni ogohlantirgan holda, bir tomonlama ba'zi ma'lumotlarning mahfiyligini belgilash huquqiga ega.

5.2. Taraflar ikkinchi Tarafning dastlabki yozma rozilisiz mazkur shartnoma bo'yicha boshqa tomonдан олинган ма'lumotlarni uchinchi shaxslarga yetkazish, uzatish va o'z maqsadlariga ishlatalish man etiladi.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga asosan javobgarlikka tortiladilar.

6.2. Xizmat ko'rsatuvchi tovarni yetkazib berish muddatida Buyurtmachi to'lov bo'yicha mazkur Shartnomaning 3.2 bandiga asosan sababli kechiktirilgan va to'plamiyligi buzilgan holatlarda javobgarlikka tortilmaydi.

6.3. Agarda "Tovar" o'z vaqtida yetkazilmasa, Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga Shartnoma summasining har bir kun uchun 0.5 % miqdorda penya to'laydi, ammo bu summa Shartnoma summasining 50% dan oshmasligi lozim.

6.4. Agarda Shartnoma bo'yicha to'lovlari vaqtida amalga oshirilmasa Buyurtmachi Xizmat ko'rsatuvchiga har bir kechiktirilgan kun to'lanmagan summa uchun 0.4% penya to'laydi, ammo bu summa kechiktirilgan to'lov summasining 50% oshmasligi lozim.

6.5. Agarda Taraflarning bittasi mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish yengib bo'lmaydigan kuch yeki ikkinchi Tomon sababli yuzaga kelganini isbotlab bersa, shu Taraf neustoyka to'lashdan ozod etiladi.

6.6. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan yoki ularni kerakli darajada amalga oshirmagan Xizmat ko'rsatuvchi Buyurtmachiga keltirgan zararlarini qoplab berishi shart.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Taraflardan biri mazkur Shartnoma bo'ycha o'z majburiyatlarini fors-major xolatlar. Ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar, zilzila, qurg'oqchilik, suvtoshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiy ofoatlar) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod etiladi.

7.2. Mazkur vaziyatlar yuzaga kelganda Taraflardan biri ikkinchi Tarafni 15 (o'n besh) kalender kun ichida ogohlantirishi shart.

8. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI. SHARTNOMA SHARTLARINI O'ZGARTIRISH.

8.1. Shartnoma Taraflar tomonidan imzolanib O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi qoshidagi G'aznachilikdan ro'yhatdan o'tgan so'ng kuchga kiradi. Mazkur shartnoma 2022-yil 31-dekabrgacha amal qildi.

8.2. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar taraflarning yozma shaklda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan xamda muxr qo'yilgan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

9. NIZOLARNI BARTARAF ETISH TARTIBI .

9.1. Taraflar barcha Shartnomaga bo'yicha yuzaga keluvchi yoki o'z majburiyatlarini bajarish oqibatida kelib chiquvchi nizolar va kelishmovchiliklarni kelishuv orqali bartaraf etish choralarini ko'radilar.

9.2. Mazkur Shartnoma yuzasidan Taraflarning birida e'tiroz bo'lgan taqdirda. E'tiroz qabul qilgan Taraf, uni ko'rib chiqib, ikkinchi Tarafga 15 kun ichida javob taqdim etishi shart.

9.3. Kelishuv yuli bilan bartaraf etish imkonи bo'lмаган holatlarda, mazkur nizolar amaldagi qonunchilik doirasida Toshkent shahar iqtisodiy sudiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi..

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikkita bir xil nusxada, har bir taraf uchun bittadan tuziladi.

10.2. Mazkur Shartnomada keltirilmagan barcha o'zga holatlarda Taraflar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga rioya qildi.

10.3. Agarda Taraflarning biri o'z pochta, aloqa va to'lov rekvizitlarini o'zgartirganda yoki qaytadan tashkil etishga yoxud tugatilishga duch kelaganda, ushbu Taraf ikkinchi Tarafni mazkur o'zgarishlar kiritilgandan so'ng 2 (ikki) ish kuni davomida yozma ravishda xabardor etishi shart. (agarda qaytadan tashkil etish yoki tugatilish nazarda tutilsa- 1 (bir) ish kuni ichida).

10.4. Taraflar ushbu Shartnomaha ilova qiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Asosiy shartlarni o'z zimmalariga oladilar.

11. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI

Xizmat ko'rsatuvchi:

MCHJ «KALEON INFORM»

Yuridik manzil:

Toshkent sh. Sayram ko'chasi, 41

h/r: 20 208 000 404 992 875 001

OPERU pri CHAKB 'ORIENT FINANS'

MFO: 01071 OKED: 53200

STIR: 207157957

Tel/faks: +(998 71) 2671894

elektron manzil: info@kaleon.uz

Buyurtmachi:

Toshkent davlat yuridik universiteti

Yuridik manzil:

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
TOSHKENT SHAHAR, SAYILGOH KO'CHASI 35-UY
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI G'AZNACHILIGI
H/r:2340 2000 3001 0000 1010 STIR: 201 122 919
MB TOSHKENT SH. HKKM MFO: 00014
Sh/r:400910860262667094100009002
STIR: 201 122 349 IFUT: 85420



Raxbar

Vusupova D.A



D. Aboev Raxbar

IP

2022-yil "17" 01 № 0266-son

SHARTNOMA ga 1-Ilova

Xizmat kursatuvchi kuydagи nashrlarni yetkazib berish buyicha xizmatlarni bajaradi:

Nº	Indeks	Nashr nomi	Soni	Narxi (yetkazib berish bilan birgalikda)	Summa QQS bilan	KKS 15%	Obuna davri
1	176	"Norma maslahatchi" va "Soliq va bojxona xabarlar" gaz. komplekti	1	1 912 625,00	1 912 625,00	249 472,83	2022-y.
2	902	Huquq va burch	1	432 000,00	432 000,00	56 347,83	2022-y.
3		Yoshlar ovozi-Molodyoj Uzbekistana	1	505 440,00	505 440,00	65 926,96	2022-y.
4	100	Adolat	1	575 217,00	575 217,00	75 028,30	2022-y.
5	1045	Demokratlashtirish va inson huquqlari	1	149 040,00	149 040,00	19 440,00	2022-y.
6	949	O'zb.Res. Qonun hujjalari to'plami - "Sobraniye zakonadatelstva Respublikni Uzbekistan"	1	1 669 200,00	1 669 200,00	217 721,74	2022-y.
7	1013	Fuqarolik jamiyati - Grajdanskoye obychestvo - Civil society (o'zb, rus va ingl. till)	1	372 600,00	372 600,00	48 600,00	2022-y.
8	229	Xalq so'zi	1	649 563,00	649 563,00	84 725,61	2022-y.
9	166	Narodnoye slovo	1	649 563,00	649 563,00	84 725,61	2022-y.
Jami:			9		6 915 248,00	901 988,88	

Jami umumiy summa: QQS bilan. 6 915 248 (Olti million tukkiz yuz un besh ming ikki yuz kirk sakkiz) So'm.

XIZMAT KO'RSATUVCHI:

BUYURTMAChi:

Raxbar Yusupova D.AProrektor A.Iminov

1.1. Buyurtmachi mablag'ini qarar.

1.1.1. To'g'ri nomzodus va nizadir bo'yicha kiritilg'an shartnomani qayta qo'shish va tushuvchi qurʼon qurʼoniga qo'shish.

1.1.2. To'g'ri nomzodus va nizadir bo'yicha qurʼon qurʼoniga qo'shish.

1.1.3. To'g'ri nomzodus va nizadir bo'yicha qurʼon qurʼoniga qo'shish.

1.1.4. Mekanik shartnomani surʼulardan qo'shish.

1.2. Buyurtmachi huquqlari.

1.2.1. Kursatuvchi surʼulardan qo'shish.